



## RAQAMLASHGAN JAMIYAT VA GLOBALLASHUV DAVRIDA KIBERXAVFSIZLIK

*Xudayorova Z.O.*

*Namangan Davlat Universiteti mustaqil izlanuvchisi,  
Qurolli kuchlar xizmatchisi, Chirchiq Oliy Tank Qo'mondonlik  
Muhandislik Bilim Yurti Gumanitar fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Maqolada bugungi kun uchun eng dolzarb masala hisoblangan kiberxavfsizlik va u bilan bog'liq ilmiy tushunchalar yoritilgan bo'lib, maqolada asosiy urg'u globallashuv davrida eng samarali himoya vositasi bo'lmish ta'lim tizimi hamda uning samarasi o'laroq shakllanadigan inson kapitali tushunchalari bo'lib, inson kapitalining kiberxavfsizlik va xalqaro xavfsizlik borasidagi ahamiyatini yoritish alohida o'rin egallagan.*

**Kalit so'zlar:** *Kiberxavfsizlik, tushuncha, globallashuv davri, himoya, ruhiy himoya, ta'lim tizimi, inson kapitali, xalqaro xavfsizlik.*

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida "inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish" va bu orqali mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Tashqi dunyo, xalqaro maydon hech zamon xavflardan holi bo'lgan emas. Bunga ming yilliklardan sado beradigan ko'hna tariximiz guvoh. Har on sergak bo'lgangina o'z xavfsizligini ta'minlagan hisoblanadi. Bugungi siz bilan muhokama qiladigan mavzuyimiz ham ayni masalaga- "raqamlashayotgan jamiyat davrida kibermaydon olamidagi xavfsizlikga bag'ishlanadi.



Globalashuv XXI asrda yuksak taraqqiy topgan mamlakatlarga hech qanday qirg'inbaraot qurollarni ishga solmasdan, fan, texnika, texnologiyalar hamda "ommaviy madaniyat" vositasida endi taraqqiyotga kirib borayotgan va ulardan orqada qolayotgan mamlakatlarni o'zlariga bog'lab qo'yayotganligi bilan hozirgi zamonga xos bo'lgan ayngi imperiyalarni vujudga keltirish imkoniyatini yaratganligi bilan insoniyat taraqqiyotining yangi davrini boshlanagligini ham o'zida ifoda ettiradi<sup>1</sup>

Ishlab chiqarishni intensiv rivojlantirish, fan va texnikaning, madaniyat va san'atning taraqqiyoti insonning yanada yaxshi yashashi, ma'naviy dunyosining kamolga erishishi uchundir. Bu jarayonlarning kaliti ta'lim tizimi va insonga beriladigan ta'limning sifati va hajmidir. Shu sababli davlatlar va jamiyatlar har bir inson uchun ta'lim olish imkoniyatini yaratab berishga intilishi lozim. XXI asrda bu hol aksiomadek haqiqatga aylanmoqda. Inson kapitali tushunchasining nazariy asoslari o'tgan asrning o'rtalarida faylasuf, sotsiolog, siyosatchi olimlari va iqtisodchilar orasida vujudga kela boshladi. Jumladan XX asr oxiri va XXI asrlarda g'arb olimlaridan G. Bekker, T. Shuls, P. Druker, M. Bloug, D. Romer, D. Minser, lar o'rganilgan.

Inson kapitalini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari, nazariy-metodologik asoslari va ijtimoiy-falsafiy jihatlari, milliy qadriyatlarining va raqamlashtirishning inson kapitalini rivojlantirishdagi roli va ahamiyatini mamlakatimizda akademik olimlarimizdan R. Abdullayeva, Q. Abduraxmonov, S. G'ulomov, Sh. Akramov, M. Abdullayeva, Q. Nazarov, F. Yuldasheva, G. G'affarova, G. Jalalova, M. Sharipov, M. Sodirjonov, Z. Abdullayeva lar tamonidan ham o'rganilib, ilmiy jihatdan izlanishlar olib borilmoqda.

Zamonaviy sharoitda inson kapitalini shakllantirish uzluksiz ta'lim tizimi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, insonda natijalarga erishish va daromad olish

---

<sup>1</sup> Отамурадов С. Глобаллашув: Миллатни асраш маъсулияти.- Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2018.-Б.69.



uchun o'z kasbiy faoliyatida qo'llashi mumkin bo'lgan ma'lum bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni doimiy ravishda shakllantirishni nazarda tutilgan. Dunyoning ilg'or xalqaro ilmiy tadqiqot institutlarida va ijtimoiy-falsafiy masalalarni tadqiq etuvchi markazlarda inson kapitali konsepsiyasi, inson kapitalini shakllantirish mezonlari va uni rivojlantirish omillarini ishlab chiqish, inson kapitalining tuzilishi va turlari hamda uning jamiyat modernizatsiyasi, barqaror rivojlanish va ijtimoiy rivojlanish omili ekanligi kabi muammolar tadqiq etilmoqda. Mamlakatimizda bugungi kunda inson kapitali ni shakllantirish, uning insonlar hayotini yaxshilash uchun muhim tomonlarini tahlil etish yuzasidan qator strategik vazifalar amalga oshirilmoqda. Vaholanki, yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham inson kapitalini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan.

Insonga barcha imkon va erkinlarni ta'minlab berib, o'z huquqlarini amalda to'la-to'kis namoyon etib, jismoniy va aqliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon yaratib berish mamlakatimiz va davlatimiz rahbarining eng asosiy maqsadlaridan biri ekanligini amalga oshirilayotgan islohotlar ko'lamidan ham sezish qiyin emas. Ammo davr taqozosi bilan shu bugungi kunda barcha tizimlar raqamlashib, unda tobora inson faktorining ta'siri kamaymoqda. Tanganing ikki tamoni bo'lgani kabi bu vaziyatning o'z yutuq va kamchiliklari ham mavjud. Eng katta kamchilik bu xavfsizlik borasidagi muammolarga borib taqaladi, boisi avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotga ega mashinalardan foydalanganimizda yukimizni yengil qiluvchi "Suniy intellekt" bilan bog'lanamiz va ba'zida uning harakatlari bizga muammo ham tug'dirishi mumkin. Bundan tashqari axborotlar hal qiluv darajasida kuchga ega bo'lgan davrda ma'lumotlar va "Intellektual mulk"lar daxlsizligi ham tobora dolzarb muammolarga aylanib boradi.

2022-yil 15-aprel sanasida mamlakatimizda "Kiberxavfsizlik to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining 764-sonli qonuni qabul qilinishi ham aslida manashu muammo va masalalarni yechimi sifatida ko'rilishi maqsadga muvofiqdir.



Shu o'rinda izohlash joiz, asli kiberxavfsizlik o'zi nima? Kiberxavfsizlik bu Kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganlik holati.<sup>2</sup>

Ma'lumki, yoshlar yangicha fikrlashga, yangi-yangi g'oyalarni dadil o'rtaga tashlab, ularni amalga oshirishga, muammolarni ijodiy va nostandart yondashuvlar asosida hal etishga moyil bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda yosh avlod vakillarining bilim olishi, ilm-fan, innovatsiyalar, adabiyot, san'at va sport sohasidagi iste'dod va salohiyatini yuzaga chiqarishi, ularning jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga ustuvor ahamiyat bermoqdamiz.

Bugungi shiddat bilan tinimsiz rivojlanayorgan kunlik yangilik va o'zgarishlar aqlbovar qilmis darajada o'sayotgan ,integratsiyalashuv jarayonlarida eng avvalo tinimsiz o'qib- o'rganishlar va izlanishlar natijasida egallanayotgan bilim va ilm-fan omiligina insonga tayanch bo'la oladi. Zero ilmsiz inson hech vaqosi yo'q kimsadek go'yo.

Imom Buxoriy bobomiz to'plagan muborak hadislardan birida: "Yoshlikda o'rganilgan ilm toshga o'yilgan naqsh kabidir", deb aytiladi. Buyuk allomalarimiz ana shunday hikmatlarga amal qilib, ilm-fan sohasida buyuk kashfiyotlarni amalga oshirganlari va umumbashariy tafakkur rivojiga hissa qo'shganlari tarixdan yaxshi ma'lum.<sup>3</sup>

O'z –o'zidan ko'rinib turibdiki, yuroridagi omillarning barchasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan, islohatlarning tub mohiyati aynan madaniyat, ilm- fan va yuksak ma'naviy qarashlarni yanada yuqori pag'onalarga olib chiqish hamda ertanagi kunga bo'lgan xalq ishonchini kuchaytirishga asoslanganligini amaldagi ifodasidir<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida" 764-sonli qonuni, 15.04.2022 .:-T, B-2

<sup>3</sup> Мирзиёев .Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021.-Б.51.

<sup>4</sup> Худаёрова З.О. "Digitization in the educational system of new Uzbekistan: problems and prospects"( Янги Ўзбекистон таълим тизимини рақамлаштириш: муаммо ва истиқболлар). ACADEMICIA: An International



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida” 764-sonli qonuni, 15.04.2022 .:-T, B-2
2. Mirziyoyev SH. Yangi O‘zbekiston strategiyasi .:-T. “O‘zbekiston” nashriyoti. 2021. B- 51.
3. Otamurodov S. Globallashuv:Millatni asrash ma’suliyati .:-T. “O‘zbekiston” nashriyoti. 2018. B- 69.
4. Xudayorova Z.O. “Digitization in the educational system of new Uzbekistan: problems and prospects”( Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimini raqamlashtirishning muammo va istiqbollari). ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 12, Issue 10, October 2022.(SJIF 2022=8.252)